



INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARI DUCH KELADIGAN QIYINCHILIKLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi

Xalqaro Nordik universiteti tayanch doktoranti

baxromovaguljamol97@gmail.com

ORCID: 0009-0003-3259-929X

+99890 504 62 82

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari duch keladigan asosiy qiyinchiliklar tahlili amalga oshirilgan. O'qituvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar bilan ishlashda tajribalarning yetarlicha emasligi, individual yondashuv zarurati, ta'lim resurslari va qo'llanmalar yetishmovchiligi kabi muammolar ko'rsatib o'tilgan. Ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va yechimlar taqdim etilgan.

Kalit so'lar: boshlang'ich ta'lim, individual yondoshuv, ota-onalar hamkorligi, jamoaning moslashuvi, trening, ta'lim resurslari.

Аннотация: В статье анализируются основные проблемы, с которыми сталкиваются учителя начальных классов в процессе инклюзивного образования. Были отмечены такие проблемы, как отсутствие у педагогов опыта работы с учащимися с особыми образовательными потребностями, необходимость индивидуального подхода, а также нехватка образовательных ресурсов и пособий. Представлены предложения и решения по преодолению этих проблем.

Ключевые слова: начальное образование, индивидуальный подход, родительское сотрудничество, адаптация в команде, обучение, образовательные ресурсы.

Abstract: This article analyzes the key challenges faced by primary school teachers in the process of inclusive education. Issues such as teachers' lack of experience in working with students with special educational needs, the necessity of an individualized approach, and the shortage of educational resources and instructional materials are highlighted. Suggestions and solutions to address these challenges are also presented.

Keywords: primary education, individual approach, parental cooperation, team adaptation, training, educational resources.

KIRISH

Mamlakatimizda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarning to‘laqonli turmush tarzini olib borishlariga, faol hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtirok etishlarini ta‘limlash uchun bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. 2020-yil 13-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 4860-sonli “Alohida ta‘limga muhtoj bolalarni o‘qitish va tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori inklyuziv ta‘lim tizimining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini yaratishga asos bo‘ldi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5847-sonli farmonida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, xususan, maxsus tarbiyaga muhtojlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olishni kengaytirish nazarda tutilgan. [2]

2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasida “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” nomli 4-ustuvor yo‘nalish “Maxsus tarbiyaga muhtojligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish” nomli 66-maqсадida bevosita mamlakatimizda maxsus tarbiyaga muhtojlarning yashash huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish nazarda tutilgan. [3]

2022-2023-o‘quv yilida inklyuziv ta‘lim joriy etilgan umumta‘lim maktablari soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta‘limga qamrab olindi. 2023-2024 o‘quv yilining 15-sentyabr holatiga kelib 208 ta tuman (shahar) larning 417 ta maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilib, unga ayni paytda 734 nafar o‘quvchilar qamrab olingan. [4] Bu O‘zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarni huquqiy himoyasiga, ularning erkinliklari, shuningdek, mamlakatimizda inklyuziv ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

M.Kurovski (2022) o‘zining “Boshlang‘ich maktablarda inklyuziv ta‘limning to‘siqlari bo‘yicha tadqiqot maqolalarining sharhi”da [8] bayon etishicha, tadqiqotchi o‘z ilmiy izlanishida 500 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari orasida AQSh, Kanada va Avstraliya kabi besh mamlakatni qamrab olgan tadqiqot o‘tkazdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 68% i nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli darajada tayyorgarlikka ega emasligini his qilgan. Shuningdek, 75% o‘qituvchi yetarli resurslarning yo‘qligi inklyuziv ta‘lim amaliyotlarini samarali amalga oshirishlariga to‘sqinlik qilayotganini ta‘kidladi. Tadqiqot o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari va inklyuziv ta‘lim samaradorligi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib, professional rivojlanishni yaxshilash ushbu muammolarni bartaraf etishga yordam berishi mumkinligini taklif qildi.

K.Damyanov (2024) esa “Boshlang‘ich maktabda inklyuziv ta‘lim va madaniyatlararo muloqot strategiyalari” [9] nomli tadqiqotida Yevropadagi 1,200 dan ortiq o‘qituvchilarning

ma'lumotlarini tahlil qildi. Uning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 82% inkluziv ta'limda maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni jalb qilish jarayonida sinfni boshqarish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishgan. Bundan tashqari, atigi 45% o'qituvchilar inklyuziv strategiyalarni amalga oshirishda maktab ma'muriyati tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini his qilgan. Tadqiqot ta'lim muassasalarida tizimli o'zgarishlar zarurligini ta'kidlab, o'qituvchilarni turli xil sinflarni boshqarish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlash maqsadida ma'muriy yordam va maxsus tayyorgarlik dasturlarini kuchaytirishni targ'ib qildi.

J.White (2022) "O'zbekiston inklyuziv ta'lim diagnostikasi" [10] o'z tadqiqotida O'zbekistonning turli hududlaridagi 300 ta boshlang'ich sinf o'qituvchisini o'rgandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning taxminan 70% ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik va nogironligi bo'lgan o'quvchilarni o'qitish uchun yetarli resurslarning yo'qligi sababli qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari, faqat 30% o'qituvchi bu o'quvchilarning ta'lim olishiga ko'mak beruvchi moslashtirilgan texnologiyalarga ega ekanligini bildirgan. Tadqiqot shuni xulosa qildiki, o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini takomillashtirish va resurslarni ko'paytirish O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun muhim qadamlar hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilari duch keladigan muammolarni o'rganish va mumkin bo'lgan yechimlarni aniqlash uchun sifatli tadqiqot dizaynidan foydalanadi. Ma'lumotlar yarim tuzilgan intervyular va turli ta'lim muhitlarida ishlovchi boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan olib boriladigan fokus-guruh muhokamalari orqali to'planadi. Ishtirokchilarni tanlashda inklyuziv ta'lim bo'yicha bevosita tajribaga ega bo'lgan shaxslarni aniqlash uchun maqsadli tanlash usuli qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar duch keladigan amaliy qiyinchiliklarni bevosita kuzatish maqsadida sinf kuzatuvlari ham o'tkaziladi. Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun tematik tahlil usuli qo'llanadi, bu esa takrorlanadigan muammolar va taklif etilgan yechimlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida axloqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilinadi, shu jumladan, xabardor qilingan rozilik va maxfiylik tamoyillariga amal qilinadi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi va haqiqiyligini ta'minlashga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagoglik kasbi juda mas'uliyatli va sharaflı kasb bo'lganidek boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga ham yuksak axloqli, irodali, aniq maqsadni ko'zlagan, odamlarni tushuna oladigan, e'tiborli, tasodifiy vaziyatlarda samarali yo'l tuta oladigan, hissiyotlarini boshqara oladigan kabi talablar qo'yiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib

tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o‘qituvchisi umumiy o‘rta ta’lim muassasa ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

- tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korrektsiyalash va me’yorga keltirish ishlarini olib boradi;
- bolalarning faolligini, ta’lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo‘llaydi;
- diqqat-e’tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarini tarbiyalaydi;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari duch kelayotgan muammolardan eng asosiylarini ko‘rib chiqamiz:

1. Inklyuziv ta’lim jarayonini jamiyat hamda barcha pedagoglarimiz uchun birmuncha zamonaviy jarayon bo‘lganligi sabab ularda jarayonni samarali amalga oshirish uchun tayyorlik va tajriba yetishmovchiligi muammosi paydo bo‘lmoqda.

2. Inklyuziv ta’lim jarayonida xilma-xil ruhiyatdagi va rivojlanishdagi bolalar ta’lim olganligi sababli o‘qituvchilardan individual yondashuvni tashkil etish borasida ham qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu esa dars jarayonida pedagoglarimizdan ko‘proq vaqt va kuch talab qiladi.

3. Inklyuziv ta’lim jarayoni uchun foydalaniladigan ta’lim resurslari va o‘quv qo‘llanmalar yetishmovchiligi muammosi ham kuzatiladi. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun moslashtirilgan darsliklar, texnik vositalar va qo‘shimcha o‘quv materiallari ko‘pincha yetarli darajada mavjud emas.

4. Sinfxonalaridagi o‘quvchilar sonining ko‘p ekanligi ham inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchiga qiyinchilik tug‘diruvchi muammolardandir. Aslida inklyuziv sinflarida umumiy o‘quvchilar soni 25 nafardan ko‘p bo‘lmasligi, alohida ehtiyojli bolalar soni esa 3-4 nafardan ko‘p bo‘lmasligi belgilangan. Hozirda ayrim sinflardagi o‘quvchilar kontingentining 30 nafardan ham ziyod holatlari ko‘zga tashlanmoqda.

5. Inklyuziv ta’lim jarayoni keng qamrovda hamda tezlikda rivojlanishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda muammolar ham ko‘zga tashlanmoqda. Ba’zi ota-onalar inklyuziv ta’lim tizimini to‘liq tushunmaydi yoki qarshilik ko‘rsatishi mumkin. Bu esa o‘qituvchilarning ishi samaradorligiga ta’sir qiladi.

6. Inklyuziv ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida psixologik zo‘riqish va charchoqning kuzatilishi muammosiga ham albatta e’tibor berish zarur.

Har xil ehtiyojga ega o‘quvchilar bilan ishlash o‘qituvchidan katta sabr-toqat va ruhiy bardoshlik talab qiladi. Ko‘p hollarda, o‘qituvchilar hissiy charchash va stress holatlariga tushib qolishadi. Inklyuziv ta’lim jarayonidagi muhit va jamoaning moslashuvida ham bir qancha muammolar mavjud. Sinfdoshlari orasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni qabul qilish va ularga yordam berish madaniyatini shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir.

Yuqorida keltirilgan muammolar bo‘yicha boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun inklyuziv ta‘lim samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni berib o‘tish mumkin:

— o‘qituvchilar uchun inklyuziv ta‘lim bo‘yicha maxsus kurslar va treninglar tashkil qilish. Hozirgi kunda ko‘plab mana shunday seminar-treninglar tashkil etilmoqda. O‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘qituvchilarga alohida ta‘lim ehtiyojlari bor bolalar o‘ziga xosligiga oid masalalar, pedagogik uslublar, individual yondoshuv bo‘yicha metodikalar va inklyuziv ta‘limning eng yaxshi amaliyotlari bo‘yicha muntazam o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etish lozim;

— ta‘lim jarayonlarini moslashtirilgan o‘quv materiallari va metodik qo‘llanmalar bilan boyitish. Bo‘lajak o‘qituvchilarda inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish uchun o‘quv modullari tarkibiga kreativ texnologiyalarni singdirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilar bilan professor-o‘qituvchilar orasida ijodiy hamkorlik, o‘quv materiallarini birgalikda tahlil qilish, ishchan dialogga kirishish muhim ahamiyatga ega. Chunki dialog jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasilari namoyon bo‘ladi. Oliy pedagogik ta‘lim jarayoniga kognitiv yondashuvni tatbiq etish bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy fikrlash usullarini o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi; [5]

— ota-onalar bilan muntazam hamkorlik qilish va ularga tushuntirish ishlari olib borish. Buning uchun ota-onalarga inklyuziv ta‘limning maqsadi va foydalari haqida muntazam seminarlar va uchrashuvlar tashkil etish, alohida ehtiyojga ega bolalar ta‘limi bo‘yicha ota-onalarga ma‘lumot beruvchi qo‘llanmalar, broshyuralar tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda Telegram yoki WhatsApp kabi guruhlar orqali ota-onalar bilan doimiy aloqani yo‘lga qo‘yish;

— psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang‘ich ta‘limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta‘lim jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan o‘qituvchilarni ta‘limda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta‘lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta‘limda sog‘lom tengqurlari bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning ta‘lim olish ehtiyojini jahon standartlari asosida ta‘minlashda tashkilotlararo maqsadli va amaliy natijalarga yo‘nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi. Ta‘lim klasteri sharoitida barcha bolaga birdek sifatli ta‘limni tashkil etishda o‘qituvchining roli va mavqei, ota-onalar va keng jamoatchilikning pedagogik savodxonligini oshirish taqozo etiladi. [6] Alohida ehtiyojli bolalar ota-onalariga psixologik maslahat va treninglar o‘tkazish, stressni kamaytirish va muammolarni yengishda yordam beradigan motivatsion uchrashuvlar tashkil qilish, ota-onalar uchun ruhiy yordam markazlari yoki mutaxassislar bilan bog‘lanish imkoniyatlarini taqdim etish, ota onalarga farzandlarining

rivojlanishi bo‘yicha muntazam ravishda hisobot berish kabi usullar orqali ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ular bilan ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va doimiy qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inklyuziv ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular orasida maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash tajribasining yetishmasligi, individual yondashuvni ta’minlashdagi qiyinchiliklar, o‘quv materiallarining moslashuvchan emasligi va ota-onalar bilan hamkorlikdagi muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish uchun o‘qituvchilar maxsus trening va seminarlar orqali bilim va ko‘nikmalarini oshirishlari kerak. O‘quv jarayonini diferensiallashtirish, turli metod va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, maktab va jamiyat doirasida ota-onalar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, psixolog va defektologlar bilan ishlash samarali natijalar berishi mumkin. Natijada, tizimli yondashuv va uzluksiz qo‘llab-quvvatlash orqali inklyuziv ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tish va barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabr, PQ–4860- son. <https://lex.uz/ru/docs/5044745>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabr, PF-5847-son. <https://lex.uz/ru/docs/4545887>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “2022 — 2026- yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvar, PF-60- son. <https://lex.uz/docs/5841077>.
4. Umarova Xilola Uktamovna, Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, “O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish sohasida erishilayotgan natijalar” “inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyat sari: strategiyalar, tajribalar va zamonaviy texnologiyalar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 17-may, 4-5-bet.
5. Madatov Ilhom Yusuf o‘g‘li, Inklyuziv ta’lim, darslik, Toshkent – “Best-Publish” – 2024.
6. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent, 2023.
7. Teshaboyeva Feruza Raximovna, Yo‘ldasheva Marg‘iyona Asrorxon qizi, O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning rivojlanishi va istiqbollari, “Ta’lim sifati yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” 873-875-betlar.

8. Kurowski, M., Černý, M., & Trapl, F. (2022). A review study of research articles on the barriers to inclusive education in primary schools. *Journal on Efficiency and Responsibility in Education and Science*, 15(2), 116-130.

9. Damyanov, K. (2024). STRATEGIES FOR INCLUSIVE EDUCATION AND INTERCULTURAL COMMUNICATION IN PRIMARY SCHOOL. *International Online Journal of Primary Education*, 13(3), 175-184.

10. Conaghan, B. A., White, J., O'Neill, S., Ikramova, S., & D'Agostino, T. J. (2022). *Uzbekistan Inclusive Education Diagnostic Study*.